



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ БУХОРИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ
ШАРОФ РАШИДОВ НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ КУТУБХОНАСИ
ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ МАЛАКА
ОШИРИШ МАРКАЗИНИНГ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ МИНТАҚАВИЙ
ФИЛИАЛИ**

**ЎЗБЕКИСТОН–ФИНЛАНДИЯ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН ФАЙЛАСУФЛАРИ МИЛЛИЙ ЖАМИЯТИ
АЛЬФРАГАНУС УНИВЕРСИТЕТИ ҲУЗУРИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН
ФАЙЛАСУФЛАРИ АССОЦИАЦИЯСИ**

**«ИНСОН, ТАФАККУР, СОЦИУМ ВА КОИНОТ:
ТАРАҚҚИЁТИ, МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛИ»**

мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман

мақолалари тўплами

Самарқанд ш., 2025 йил 12 март

САМАРҚАНД-2025

КВК:22.3+87.21
UO`S:530.192:115

«Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман мақолалари тўплами. “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” – Тошкент: “Voris nashr” нашриёти, 2025. 1450 б.

«Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материалларида илм, маърифат ва рақамлашаётган дунёни ривожлантиришнинг ижтимоий фалсафий масалалари, онтология, гносеология, мантиқ масалалари, космология, фазо-вақт ва табиатшунослик фалсафаси масалалари, илмий-маънавий мерос ва фалсафа тарихи масалалари, инсон ва жамият тараққиётининг долзарб масалалари, маънавият, миллий ғоя, диншунослик ва бағрикенглик масалалари, инсон, унинг эътиқоди, жамият, миллий хавфсизлик масалалари, таълим тизими ривож ва истиқболи масалалари, дунёнинг синергетик манзараси: тарихи, ҳозирги замон ва истиқболлари, сунъий интеллект ва унинг синергетик моҳияти масалаларига доир мақолалар жамланган. Анжуман таниқли файласуф, жамоат ва илм-фан арбоби, устоз-олим, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директорининг бош маслаҳатчиси, Турон Фанлар Академияси академиги, фалсафа фанлари доктори, профессор Бахтиёр Оманович Тураев таваллудининг 75 йиллигига бағишланган.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Тарих фанлари доктори, профессор Зиёдов Шовосил Юнусович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Саифназаров Исмоил
Самарқанд ДУ ректори, академик Холмуродов Рустам Ибрагимович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Негматова Шахзода Шухратовна
Ал Фраганус университети ректори Маҳмудов Муҳаммадисмоил Муҳиддинович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Каримов Бахтиёр Раҳманович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Абилов Урал Муродович
Фалсафа доктори (PhD), доцент Очилов Жамшид Абдурашидович
Фалсафа доктори (PhD), доцент Турсунов Бахтиёр Темурович

МАСЪУЛ МУҲАРРИРЛАР:

Тарих фанлари доктори, профессор Зиёдов Шовосил Юнусович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Каримов Бахтиёр Раҳманович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Абилов Урал Муродович
Фалсафа доктори, доцент Артиков Музаффар Абдурахманович

ТАҚРИЗЧИЛАР:

Фалсафа фанлари доктори, профессор Яхшиликов Жўрабой Яхшиликович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Джуракулов Хусан Анварович
Фалсафа фанлари доктори, профессор Мадаева Шахноза Амануллаевна
Фалсафа фанлари доктори, профессор Файзиходжаева Дилбар Иргашевна

Нашр муҳаррири: Муҳаммадиев Отабек Бозорович

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази Илмий кенгашининг 2025 йил 26 февралдаги 1-сонли йиғилиши Қарори билан нашрга тавсия қилинди.

Тўпلامда ўрин олган мақолаларнинг савияси, келтирилган рақамлар, статистик маълумотлар ва фикр-мулоҳазалар учун муаллифлар масъул.

ISBN 978-9910-8629-3-9

© “Voris nashr”, 2025 й.

	Тўраева А.П. Ақлий тарбияни шакллантиришнинг асосий йўналишлари	485
	Achilova N.N. “Avesto” - ma’rifatli jamiyat qurish haqidagi ilk falsafiy qarashlar ibtidosi	489
	Очилов Ж.А. Космоген, техноген ва антропоген таҳдидлар	493
	Agzamova Z. B. Globallashuv sharoitida ekologik ongning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	496
V	ИЛМИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОС ВА ФАЛСАФА ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ	501
	Тураев Б.О. Абу Наср Форобий ҳақида	501
	Masharipova G.K. Xorazm Ma’mun akademiyasidagi ilmiy muhit va ilmiy izlanishlar	511
	Shadmanov K. "The metaphysical school" in english poetry of the late Renaissance: philosophical and moral outlook	520
	Артиков М.А. Ҳазрат Навоий ва устоз Конфуций: уйқаш ғоялар ва ўхшаш тақдирлар	530
	Каримов Б.Р. Современные проблемы развития Алтайской и Тюркской цивилизаций системе Мировой цивилизации	537
	Юлдашев А. Махмудхўжа Беҳбудий миллатимизнинг маърифатпарвар жонкуяри	549
	Djurayev G'.A. Absurdga qarshi falsafiy isyon	555
	Xamdamonov E.I. Ziyo Go‘kalp rahm-shafqat va mehribonlikni ulug‘lashi	561
	Саломова Ҳ.Ю. Жалолиддин Румийнинг инсон моҳияти тўғрисидаги фикр-мулоҳазалари	565
	Davronov O.U. Yusuf Qarabog‘iy falsafasining bugungi yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	582
	Ахмедов Р.П. Муҳаммад Закариё Розийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари	584
	Абубакри М.Г. Исследование наследия и воззрений Насириддина Туси в советском периоде Республике Таджикистана	588
	Murodova A.M. Jadidchilik asoschisi Ismoil Gaspirali faoliyatiga oid	596
	Ахмедов Р.П. Муҳаммад Закариё Розий фалсафаси	600
	Рўзиев М.Ў. Абулҳасан Бахманёр шахсияти	603

YUSUF QARABOG‘IY FALSAFASINING BUGUNGI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni yetuk, ma‘naviy barkamol va intellektual shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek: “Bugungi avlodni tarbiyalashda biz ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan merosga tayanishimiz, ularning ilmu donishiga suyanishimiz kerak. Bu qadriyatlar millatimizni ma‘naviy jihatdan yanada boyitadi.” Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, Yusuf Qarabog‘iy singari buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlari yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Yusuf Qarabog‘iy o‘zining erkin va ilg‘or qarashlari bilan Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkuriga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan, uning g‘oyalari bugungi kunda ham yoshlar uchun ahamiyatlidir.

Yusuf Qarabog‘iy XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab ijod qilgan, Sharq falsafasining yirik namoyandasi sifatida tanilgan. U panteizm pozitsiyasiga asoslangan holda musulmon ulamolarining aqidaparastligi va xurofotini tanqid qilgan¹. Qarabog‘iy, birinchi navbatda, insonning ma‘naviy barkamolligi va axloqiy pokligini jamiyatning asosiy mezon sifatida ko‘rgan. Uning fikricha, inson o‘zining xulq-atvori, mehribonligi va halolligi bilan atrofdagilarning hurmatini qozonishi lozim.

Yusuf Qarabog‘iy insonning ma‘naviy komilligi haqida bayon qilar ekan insonda bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy fazilatlarni aniqlagan. Ular quyidagilar:

1. Ismat – insonning o‘z nomusini asrashi va pokligi, «Ismat» so'zi lug'atda «man qilish» – «saqlash» ma'nosini anglatadi. «Ismat»ning shar'iy ma'nosi esa «Alloh taoloning O'z payg'ambar va nabiylarini gunoh va ma'siyat hamda munkar va harom ishlarni qilishdan saqlashidir»²;

2. Adolat – adolatparvarlik va inson huquqlarini hurmat qilish;

3. Jasorat – haqiqatni himoya qilish yo‘lida qo‘rqmaslik;

4. Axloqiy poklik – ichki va tashqi tozalikka intilish.

Ushbu fazilatlar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham har bir yosh avlodning shaxsiyati va tarbiyasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yusuf Qarabog‘iyning g‘oyaviy falsafiy qarashlari o‘z

¹ https://www.elibrary.az/docs/jurnal/jrn2017_464.pdf

² <https://islom.uz/maqola/18564>

davrining kishilari uchun ham bugungi zamonaviy yoshlar uchun ham o'z ta'sirini yo'qotgan emas.

Yusuf Qarabog'iy o'zining ilg'or falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan Sharq mamlakatlarining keyingi falsafiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning dialektik yondashuvi va ratsionalistik qarashlari yoshlarni ilmiy fikrlashga undaydi. Qarabog'iyning qarashlarida insonning axloqiy rivojlanishi bilan jamiyatning barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik alohida ta'kidlangan.

Yusuf Qarabog'iy insonni ichki ziddiyatlar orqali haqiqatni anglashga undaydi. Bu yondashuv yoshlar o'rtasida analitik fikrlashni rivojlantirish va tanqidiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, faqat mantiqiy va axloqiy tarbiya yordamida inson ma'naviy kamolotga erishishi mumkin.

Yusuf Qarabog'iy falsafiy qarashlarida Sharq peripatizmiga xos yondashuv yetakchi bo'lib, voqelikni ratsional va dialektik talqin qilish bilan ajralib turadi. U dunyoni voqelik sifatida tushunishda panteistik qarashlarni ilgari surgan va barcha mavjudotni ikki turga ajratgan: "Vojib" (mavjud bo'lishi zarur) va "Mumkin" (mavjud bo'lishi yoki yo'qligi ehtimoliy). Bu talqinlar Farobiy va Ibn Sino falsafasining uzviy davomidir¹.

Shuningdek, Qarabog'iy insonni tabiatning kichik nusxasi sifatida ko'rgan. U inson tanasidagi organlarni koinotdagi jismlar bilan qiyoslab, koinot va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasvirlagan. Masalan, Quyoshni yurakka, Oyni oshqozonga va boshqa sayyoralarni inson organlariga qiyos qilgan. Bu esa inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni anglashga undaydi.

Yusuf Qarabog'iy g'oyalarini bugungi zamon yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi zamon yoshlarini bilimi va ulardagi mantiqni shakllantirishda Yusuf Qarabog'iyning ratsionalistik qarashlari yosh avlodda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Uning dialektik yondashuvi sababiy bog'liqlik va uzviylikni anglashga yordam beradi. Qarabog'iyning so'zlariga ko'ra, "Narsa haqidagi bilimga uning sababi orqali erishiladi" – bu ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim prinsipdir.

Bugungi kunda Yusuf Qarabog'iy g'oyalari yosh avlodning axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim o'ringa ega ekanligini uning g'oyalaridagi yoshlarni ismat, adolat, jasorat va axloqiy poklik kabi yuksak

¹ Nuritdinov M. Yusuf Qarabog'iy va O'rta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy falsafiy fikr. "Fan".T.,1991. B-56.

qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari bugungi axborotlashgan zamonda yoshlarni turli xil yod g'oyalar, axborot xurujlaridan himoya qilishda ularni erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish har qachongidanda dolzarb bo'lib bormoqda. Bu borada ham Qarabog'iyning ma'naviy me'rosidagi erkinlik va ratsionalizmni targ'ib qilish kabi qarashlari yoshlarni mustaqil fikrlash va o'z qarashlarini shakllantirishga undaydi.

Qarabog'iyning falsafasidagi insonning ichki dunyosi va jamiyatga munosabati uyg'un bo'lishi kabi qarashlari ham yoshlar o'rtasida ijtimoiy faollik va mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Qarabog'iy erkin fikrlashi, mantiqiy qarashlari va yuksak axloqiy fazilatlarni targ'ib qilishi bilan zamonidan oldinroq mutafakkir bo'lgan. Uningcha, komil inson bo'lish uchun inson o'z xulq-atvori, mehribonligi va adolatparvarligi bilan jamiyatga foyda keltirishi kerak. Bu qadriyatlar bugungi yoshlar tarbiyasida ham katta ahamiyatga ega. Yoshlarni Qarabog'iy merosi bilan tanishtirish nafaqat ularning ma'naviy rivojlanishiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham asos bo'la oladi.

МУҲАММАД ЗАКАРИЁ РОЗИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ

Ахмедов Руфат Пирматович

БухДУ тадқиқотчиси

Жаҳон халқларининг ахлоқий қиёфасини шакллантиришда аждодларимиздан қолган илмий-маънавий мерослар муҳим ўринга эга бўлиб, уларнинг ўзликни англаш, дунёни билиш, ҳақиқатга эришиш йўллариини излашга бўлган интилишлари инсон ва жамият тараққиёти учун зарур бўлган таълимотларнинг шаклланишига замин ҳозирлаган. Шу нуқтаи назардан, Шарқ фалсафаси тамойилларига асосланган, инсон ва билиш муаммоларига бағишланган таълимотлари жаҳон фалсафаси тарихида фалсафий антропология, гносеология ва ахлоқшунослик соҳасини ўзига хос тадқиқот услублари, амалий тажрибалари билан бойитган алломалар илмий меросини тадқиқ этиш зарурати намоён бўлмоқда. Айниқса, Закариё Розийнинг ҳурфикрлиликка, илмга чорловчи ғоя ва фалсафий қарашларининг